



THE ROLE AND PARTICIPATION OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN NAVOI REGION

Odiljon Bakhriddinov

Assistant

Navoi State University of Mining and Technology
Navoi, Uzbekistan

E-mail: odiljonbakriddinov28@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Entrepreneurship, middle class, small business, private entrepreneurship, "Youth notebook", "Youth business", "the first step into business".

Received: 19.05.25

Accepted: 21.05.25

Published: 23.05.25

Abstract: This article presents the importance of entrepreneurship development among the youth of the Republic and Navoi region during the years of independence, the problems and obstacles faced by entrepreneurship today, and the prospects for entrepreneurship. The article highlights the reforms carried out by the government for youth entrepreneurship, and reflects the statistics of today's entrepreneurial activity.

NAVOIY VILOYATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDA YOSHLARNING O'RNI VA ISHTIROKI

Odiljon Baxriddinov

assistent

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Navoiy, O'zbekiston

E-mail: odiljonbaxriddinov28@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, o'rta sinf, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, "Yoshlar daftari", "Yoshlar biznesi", "Biznesga ilk qadam".

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarda respublikamiz va Navoiy viloyatining yoshlar o'rtasidagi tadbirkorlik sohasining rivojlanishining ahamiyati, bugungi kun tadbirkorligida uchrovchi muammolar va to'siqlar, tadbirkorlikning istiqbollari keltirilib o'tilgan. Maqolada hukumat tomonidan yoshlar tadbirkorligi uchun yaratilayotgan islohotlar yoritilgan va bugungi tadbirkorlik faoliyati haqida statistik ma'lumotlar aks etirilgan.

РОЛЬ И УЧАСТИЕ МОЛОДЕЖИ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Одилджон Бахридинов

Ассистент

Навоийский государственный горно-технологический университет

Навои, Узбекистан

E-mail: odiljonbakriddinov28@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Предпринимательство, средний класс, малый бизнес, частное предпринимательство, “Молодежная тетрадь”, “Молодежный бизнес” “ первый шаг в бизнес”.

Аннотация: В данной статье дается информация о возникновении частного предпринимательства и малого бизнеса на территории Республики и его роли в жизни молодежи в первые годы независимости, в период строительства общества, основанного на односторонне управляемой социалистической экономике, рыночных отношениях в нашей республике. В статье подчеркивается значение частного предпринимательства в экономической жизни государства.

Kirish.

Tadbirkorlik — bu foyda olish maqsadida iqtisodiy faoliyat yuritish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va bozorga yangi mahsulot yoki xizmatlarni olib chiqish jarayonidir. Bozor iqtisodiyoti o‘tish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvatlash eng muhum omil sanaladi. Tadbirkorlik har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishining muhim tayanchi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon tadbirkorlikni rivojlantirish va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlarning tadbirkorlik faoliyatida ishtiroki davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan keng islohotlar va tadbirkorlar uchun yaratilayotgan islohotlarning ahamiyati va o‘rni beqiyosdir.

“Yaratganning bizga marhamat qilgan har bir kuni, barchamiz uchun yangi imkoniyat. Gap nima haqida ekanini tadbirkorlarimiz hammadan ham yaxshi tushunadilar. Bundan unumli foydalanib, imkoniyatni natijaga aylantirish uchun barchamiz tinimsiz izlanishimiz, yangi g‘oya va tashabbuslardan qo‘rqmasdan, yanada ko‘proq mehnat qilishimiz kerak”.

Bugungi kunda tadbirkorlik sohasi asosan, sanoat korxonalari va o‘zining ishlab chiqarish zavod va fabrikalari bilan mashhur bo‘lgan Navoiy viloyatida ham keng miqyosida rivojlanmoqda. Navoiy viloyati sanoat va iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlardan biri bo‘lib, bu yerda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur maqolada Navoiy viloyatida tadbirkorlik muhitining shakllanishi, yoshlarning biznes sohasidagi faolligi, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mazkur maqolani yoritishda mustaqillik yillarda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan yoshlar siyosati, yoshlar tadbirkorlik faoliyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Prezident qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmon va farmoyishlari, Oliy majlis tomonidan qabul qilingan qonunlardan keng foydalanilgan. Bundan tashqari respublikamizning bir guruh tarixchi va iqtisodchi olimlar (Sh.S.Norov, X.Shaxnoza, X.Sobirova, Sh. Tursunov) maqolalaridan ham foydalanilgan. Maqolani yoritishda dialektik metodga tayanildi.

Muhokama va natijalar.

Navoiy viloyati geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va sanoat infratuzilmasi bilan ajralib turadi. Viloyat Zarafshon vohasining tarkibiy qismi bo‘lib, Qizilqum cho‘llari va Nuroto tog‘ tizmasining katta qismini o‘z ichiga oladi. Viloyat dastlab, 1982-yil 20-aprelda tuzilib, 1988-yil 6-sentabrda tugatilgan va 1992-yil 28-iyun kuni qayta tashkil etilgan. Viloyat hududi o‘zining tabiiy boyliklari va xom-ashyolari bilan maqtana oladigan darajada boydir. Bu hududda respublika miqyosida eng ko‘p uran, oltin, bazalit, marmar va boshqa mahsulotlar qazib olinadi. Viloyat hududida joylash “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Navoiyazot AJ” birlashmasi, “Qizilqumsement” kabi bir qancha yirik ishlab chiqarish tarmoqlari MDH davlatlari miqyosida mashhur hisoblanadi.

Viloyat aholi soni ham yildan-yilga oshib kelmoqda. Bugungi kunda viloyatda 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, viloyatdagи 1 094,7 ming aholi isteqomat qilib kelmoqda. Ularning taxminan 60% ga yaqini yoshlar tashkil etadi. Bu esa 656,8 ming nafari aholi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar deb hisoblash mumkin.

Bugun kunda, viloyat iqtisodiyotida asosiy o‘rinni yirik sanoat korxonalari, kimyo va metallurgiya majmualari egallab, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismini tashkil etayotgan bo‘lsada, lekin so‘nggi yillarda hududda tadbirkorlik faoliyatni, ayniqsa kichik va o‘rtalik biznesning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlikka berilayotgan keng e’tibor hukumat darajasida ko‘tarilishi bu soha tarmog‘ini yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 13-mart kuni Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida viloyat faollari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazdi. Ushbu yig‘ilishda viloyatni kompleks rivojlanirish, xususan, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash masalalari muhokama qilindi. Prezident viloyatda eng qulay va jozibador biznes muhitini yaratish zarurligini ta’kidlab, Navoiy viloyatini eksportga yo‘naltirilgan innovatsion va yuqori texnologiyali ishlab

chiqarishlar bo'yicha erkin iqtisodiy zonaga aylantirishni taklif qildi. Loyiha yuzasidan Navoiy viloyatida 2019-2020-yillarda umumiy qiymati 26 trillion 368 milliard so'mlik 511 ta investitsiya loyihasidan iborat dastur ishlab chiqilgani ma'lum qilindi. Mazkur dastur doirasida 1 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirib, 17 ming 400 ta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirildi.

Bu kabi loyihamalar viloyat miqyosida tadbirkorlikni rivojlanishiga turtki bo'lib kelmoqda. 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyat hududida jami kichik biznes tadbirkorlar soni 7788 tashkil etdi. Ular tomonidan 2017-yil viloyat yalpi ichki mahsulotining 40,3 foizi ishlab chiqarilgan. Bu sohada viloyat aholisining 254,5 ming nafari (jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 60,3 foizi) ish bilan band bo'lgan. Ularning 206,9 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanigan bo'lsa 46,7 ming kishi kichik korxona va mikrofermalar hisobiga to'g'ri kelgan. 2023-yil yakuni bo'yicha esa Navoiy viloyatida 25 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritmoqda, shundan 8 mingga yaqini yoshlar tomonidan tashkil etilgan. Bu esa hududda yoshlarning biznes sohasidagi faolligini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

| Nº | Yillar: | Kichik biznes subyektlari soni: | Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi. (mlrd. so'mda.) | Viloyat Yalpi ichki mahsulotidagi ulushi:(foiz hisobida) |
|----|---------|---------------------------------|--|--|
| 1. | 2017 | 7788 | 2 460,9 | 40,3 |
| 2. | 2018 | 9143 | 3640,0 | 42,4 |
| 3. | 2019 | 15511 | 5 740,5 | 31,3 |
| 4. | 2020 | 19058 | 4 298,3 | 25,5 |
| 5. | 2021 | 21 743 | 5 051,5 | 27,1 |
| 6. | 2022 | 23 997 | 6 300,7 | 26,8 |
| 7. | 2023 | 26 014 | 7 795,0 | 26,0 |
| 8. | 2024 | 27 047 | 13 346,5 | 25,1 |

**Jadval №1. Viloyat hududida mavjud kichik biznes subyektlarining yilma-yil soni.
(Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asoslangan).**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5071-son qarori asosida "Yoshlar daftari" tizimi joriy etilishi butun O'zbekistonlik yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishga sabab bo'ldi. Ushbu tizim orqali bugungi davr yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularning bandligini ta'minlash va innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga doir samarali ishlar olib borilishi ko'zda tutilgan. Bu esa tadbirkorlik uchun boshlang'ich sarmoyasi mavjud bo'lgan yoshlar uchun ham qo'shimcha imkoniyat eshiklarini ochib berishga xizmat qildmoqda. Xususan, Navoiy viloyatida ushbu dastur doirasida minglab yoshlar imtiyozli kreditlar va grant mablag'larini olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mamlakatimizda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, bandligini oshirish va ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida

“Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi. Ushbu tizim orqali yoshlarning biznes tashabbuslarini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Davlat tomonidan yoshlar uchun turli imtiyozli kreditlar ajratildi. Jumladan, “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 100 million so‘mgacha bo‘lgan kreditlar 7 yil muddatga, 2 yillik imtiyozli davr bilan taqdim etildi. Shuningdek, "Biznesga ilk qadam" loyihasi orqali ko‘plab yoshlar o‘z biznesini boshlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2021–2024-yillar davomida ushbu tizim orqali minglab yoshlar kredit olib, o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu dastur yoshlar bandligini oshirish bilan birga, ularning iqtisodiy faolligini ham rag‘batlantirmoqda.

Shunday qilib, "Yoshlar daftari" tizimi orqali ajratilgan imtiyozli kreditlar mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirish maqsadida viloyatdagi oliy ta’lim muassasalarida biznes-inkubatorlar, o‘quv markazlari va amaliy dasturlar tashkil etilgan. Yosh tadbirkorlar uchun trening va seminarlarda qatnashish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, bu ularning amaliy tajriba orttirishiga yordam bermoqda.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar doimiy amalga oshirilayotgan bo‘lsada, lekin bugungi kunda ham yoshlar tadbirkorligi uchun ayrim qiyinchilik va to‘sinqinliklar mavjud. Xususan:

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga to‘sinqinlik qilayotgan omillar:

a. **Moliyaviy resusurslarning to‘liq yetishmasligi** - Davlat tomonidan, davlat dasturlari asosida ko‘plab imtiyozli kreditlar ajratilayotgan bo‘lsada, ular yetarlicha qamrov darajasida emas. Bundan tashqari yosh tadbirkorlar kredit olishdagi ikkilanish va qo‘rquvlar ham ularni tadbirkorlik faoliyati boshlashiga to‘sinqinlik qilmoqda. Bu esa yosh tadbirkorlar o‘z biznesini boshlash uchun yetarlicha moliyaviy mablag‘ topishda qiyinchiliklarga duch etmoqda.

b. **Biznes yuritish tajribasi va bilim yetishmovchiligi** - Ko‘pchilik yosh tadbirkorlar biznes-reja tuzish, marketing strategiyasini ishlab chiqish va huquqiy asoslarni tushunish borasida malakaga ega emaslar. Bugungi kunda mavjud bo‘lgan biznes trening va buxgalteriya kurslarning kamligi yoki undagi o‘qitish tizimining pastligi yoshlarni bugungi kun tadbirkorlik tajribasini to‘plashga to‘sinqinlik qilmoqda.

c. **Bozor talab va taklif qonuni to‘liq o‘rganilmaganligi** – Bugungi kunda tashkil etilayotgan aksariyat yosh tadbirkorlik va xususiy fermalar 1 yil ham faoliyat yuritmasdan sinmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri esa, ularning bozor qonunyatlaridan to‘liq xabardor emasligini ko‘rsatmoqda. Yosh tadbirkorlar bozor talablarini oldindan tahlil qilishda tajribasizlik

sababli muammolarga duch kelmoqdalar. Bu esa oxirgi uch yilda tashkil etilayotgan korxonlarning 17,5 ming tasi bir yil ham faoliyat yuritmasligiga sabab bo‘lgan.

d. Byurokratik to‘sıqlar va huquqiy noaniqliklar – Keyingi yillarda hukumat tomonidan raqamlashtirish ishlari jadallashtirilgan bo‘lsada, lekin bugunkunda ham ayrim byurokratik to‘sıqlar jamiyatimizda uchrab turmoqda. Ruxsatnomalar, litsenziyalar va soliq tizimiga oid murakkab tartib-qoidalar yosh tadbirkorlar uchun qo‘s Shimcha qiyinchilik tug‘dirmoqda.

Xulosa.

Navoiy viloyatida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Biroq, mavjud muammolarni bartaraf etish va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish orqali hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyotiga yanada katta hissa qo‘sish mumkin. Ayniqsa bugungi kun uchun zarur bo‘lgan zamонавиy tadbirkorliklarni sohalarini rivojlantirish bu yo‘ldagi eng muhim qadamdir. Xususan, quydagi sohalar bugun kun davr talabi sanaladi:

a. Yashil iqtisodiyot va ekologik tadbirkorlik – Yosh tadbirkorlarning ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

b. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda startaplar – IT-sohasida yosh tadbirkorlar tomonidan yangi startaplarni tashkil etish va ularni xalqaro bozorga olib chiqish.

c. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida innovatsion loyiҳalar – Yosh fermerlarni qo‘llab-quvvatlash va agro-biznesni rivojlantirish.

Yoshlarning innovatsion fikrashi, zamонавиy texnologiyalarga qiziqishi va biznes yuritish ishtiyoqi Navoiy viloyatini keljakda raqobatbardosh hududga aylantirishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagи nutqidan. 18.08.2023
https://president.uz/oz/lists/view/6561?utm_source

2. https://navstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13671-navoiy-viloyatining-doimiy-aholisi-soni?utm_source

3. Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatini investitsiya va innovatsiyalar hududiga aylantirishni taklif qildi. https://president.uz/oz/2428?utm_source

4. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. (2017). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari. www.navstat.uz

5. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. (2023). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari. www.navstat.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-5071-son qarori. (2021).
7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 19-martda o‘rta va kichik biznes tadbirkorlari bilan uchrashuvidagi nutqidan.
8. Sobirova, X. “O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish: muammo va yechimlar”. Toshkent. 2021-yil
9. Tursunov, Sh. “Navoiy viloyatida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish strategiyasi”. Navoiy 2020-yil.
10. Baxriddinov O.J.: “Mustaqillik yillarda o‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning vujudga kelishi va uning yoshlar hayotida tutgan o‘rni”. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” № S/4(4) – 2024. 45-50-bb.
11. Baxriddinov O.J.: “Sobiq sovet tuzumidan qolgan iqtisodiy meros, mustaqillik yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va bozor huquqiy munosabatlarining shakllanishi” MUG‘ALLIM HƏM YZLIKSIZ BILIMLENDIRIO‘ ilmiy-metodik jurnali 2024-yil dekabr 6/3 son. ISSN 2181-7138
12. Xayitov Sh.A., Norov Sh.S., Baxriddinov O.J.: “Navoiy viloyati misolida zarafshon vohasida sanoat rivojlanishining tarixiy jihatlari”, ZARAFSHON VOHASINI KOMPLEKS INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YUTUQLARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI V-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI., Navoiy 2024-yil.